



IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLAR XULQ-ATVORIGA VA RUHIYATIGA SALBIY TA'SIRI

Maqsudova Gulbahor Abdujabbarovna

Toshkent shahar yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlari” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi kunda keng ommalashib borayotgan, yoshlar o‘rtasida keng tarqalib o‘z ta‘sirini ko‘rsatayotgan global muammolardan biri ijtimoiy tarmoq, yoshlar o‘rtasida keng tarqalishi va uning oqibatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: internet, onlayn, kompyuter o‘yinlar, vertul olam, veb sayt, ijtimoiy tarmoq, salbiy muammolar.

Kirish. Aslida, internet, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, ilm olish imkoniyatlarini osonlashtirish, odamlarning uzog‘ini yaqin qilish, o‘zaro munosabatlarda qulaylik yaratish edi. Biroq bugungi kunga kelib, ularning vazifalari tobora kengayib, maqsadlari ham turlanib bormoqda.

Har narsaning yaxshi va yomon tarafi bo‘lganidek, so‘nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarning ham jiddiy xatarlari yuzaga chiqmoqda.

Jumladan, ayni davrda ayrim buzg‘unchi oqimlarning internetdan o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida keng foydalanayotgani, yoshlarni o‘z domiga tortayotgani, ayrim saytlarda behayolik, o‘z joniga qasd qilish kabi ayanchli illatlar targ‘ib etilayotgani, ba’zi



ijtimoiy tarmoqlarda turli fitnalar, jamiyatni beqarorlashtiruvchi yolgʻon maʼlumotlar berilayotganini kuzatishimiz mumkin.

Shuning uchun ham internet “oʻrgimchak toʻri” deb nomlanadi.

Ushbu “oʻrgimchak toʻri” domiga xalqimiz, xususan, yoshlarni tushib qolishdan asrash, ularni ijtimoiy tarmoqlarning xatarlaridan ogoh etish har bir ziyoli, maʼrifatparvar insonning eng dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning koʻplab xatarlari bor. Quyida ulardan ayrimlariga toʻxtalib oʻtamiz.

Ijtimoiy tarmoqlarning xatarlaridan biri turli asossiz maʼlumotlarni tarqatish, boʻhtonlar hamda uydirmalarni urchitish holatlaridir. Ayrim soddadil musulmonlar mana shunday uydirmalarga ishonib, yolgʻon va boʻhtonga sherik boʻlib qolmoqdalar.

Inson doimo hayot davomida oʻqish va izlanish bilan band boʻladi. "Ijtimoiytarmoq" tushunchasi 1954 yilda paydo boʻlganini va albatta, Internetga hech qandayaloqasi yoʻqligini hamma ham bilmaydi va ular bu hodisani oʻtgan asrning 30-yillarida oʻrganishni boshladilar. Kontseptsyani sotsiolog Jeyms Barns kiritgan: “ijtimoiy tarmoq” – bu ijtimoiy obʼektlar va ular oʻrtasidagi aloqalar boʻlgan tugunlar guruhidan iborat ijtimoiy tuzilma. Oddiyroq qilib aytganda, bu tanish odamlarning maʼlum bir guruhi boʻlib, bu yerda odamning oʻzi markaz, uning doʻstlari esa shoxlardir. Tarmoqning barcha aʼzolari oʻrtasida ikki tomonlama yoki bir tomonlama aloqalar mavjud. Misol uchun, bu maʼlum bir Jek markaz boʻlgan va Bill va Ketrin uning tanishlari boʻlgan talabalar guruhi boʻlishi mumkin. Asta-sekin ilmiy kontsepsiya avval rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda, keyin Sharqiy Yevropada mashhurlikka erishdi. Jamiyat rivojlanishi bilan biz axborot asriga keldik, bu davrda biz koʻplabaloqa turlarini yaratdik, bu ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishida sakrashga olib keldi va hozir bu ilmiy tushuncha hamma joyda qoʻllaniladi. Bugungi kundagi dolzarb mavzulardan biri boʻlgan va odamlar keng koʻlamda foydalanilayotgan ijtimoiy tarmoq, jamiyatga oʻz taʼsirini koʻrsatib kelmoqda. Koʻrishimiz mumkinki XI asr



texnologilar zamonida yashar ekanmiz texnologiya hayotimizning bir bo'lagiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari texnologiya odamlarga qulay imkoniyatlar yaratib bermoqda va hayotni ochilmagan javhalarini ochishga yordam bermoqda, shu bilan bir qatorda o'zining salbiy ta'sirlarini ham ko'rsatib kelmoqda. Bugungi zamon shiddati hayotimizni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz aslo tasavvur etib bo'lmasligini namoyon etadi. Aksariyat odamlarning faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog'liq. Bugungi kunda tez sur'atlar bilan jamiyat va insonlar hayotiga kirib kelayotgan, o'zining ijobiy va salbiy oqibatlarini insoniyat oldida yaqqol namoyon qilganliginiko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz va dunyo miqyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqeahodisalar, yangiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aks etib bormoqda. Bu yangiliklardan xabardor bo'lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ancha qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zaro ma'lumot almashish yoki biror voqea-hodisaga munosabat bildirish, o'z fikrini bayon etish yoki o'zaro muloqot qilishda ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vositadir. Insonlar ijtimoiy tarmoqdan keng tarizda unimli foydalanish va undan o'zi uchun kerakli malumotlarni tezlik bilan topish. Ijtimoiy tarmoqlar insonlar uchun qulaylik yaratibgina qolmasdan ularning harakatchanligi va tashqi muhitga bo'lgan qarashlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali inson ongi va dunyoqarashini o'zgartirish maqsadida g'oyaviy, mafkuraviy ta'sir o'tkazish, soxta axborot tarqatish kabi holatlar, ayniqsa, hushyorlikni talab etmoqda. Axborot xurujida inson ongi, millat ruhiyati nishonga olinadi. So'nggi vaqtlarda har narsaning foydasi bo'lishi qatorida zarari ham bo'lishi mumkinligin haqida unchalik bosh qotirmayapmiz. Masalan, internetning foydasi ko'pligiga shubha yo'q. Lekin undan to'g'ri foydalanmaslik oqibatida turli muammolar chiqayotgani, xatto insonni jinoyat ko'chasiga boshlayotgani ham tez-tez quloqqa chalinmoqda. Internet keng muloqotga imkon yaratadi.



Biroq unda oxirgi paytlarda salbiy holatlari tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Salbiy ob'yektinga aylangan inson, ayniqsa balog'at yoshidagi yoshlar uchun uning oqibatlari o'ta jiddiy va ayanchli bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar bizga juda ko'p imkoniyatlarni yaratib bermoqda bular jumlasiga ko'p xolatdagi ishlarni biz onlayn tarzda amalga oshirish imkonini bermoqda. Boshqa mamlakatdagi yaqinlarimiz bilan oson va qulay aloqa qilish imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi. Eng qulay va foydali tomonlaridan biri bu- biz bugungi kun talabi bo'lgan til o'rganish kurslariga onlayn qatnashish imkoniyatini ham beradi. Misol uchun ijtimoiy tarmoqlarda yangi til o'rganish imkoniyati ham juda qulay hisoblanadi. Biz bu orqali o'zimizga kerak va zarur narsalarni tezlik bilan yuklab olishimiz va oqilona foydalanishimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda biror mavzudagi axborotni yengillik bilan topish mumkin. Deylik, salomatlik sohasiga qiziqqan kishi ayni shu yo'nalishdagi kanal va guruhlariga a'zo bo'lishi mumkin. Turli sohalarda maslahatlar olish, kerakli bilim va tasavvurlar hosil qilish imkoniga ega. Yana turli xil qiziqarli va miya faoliyati uchun foydali bo'lgan o'yinlarni o'ynab ham vaqtimizni unimli narsalarga sarflashimiz mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarning eng maqtoqli, ahamiyatli jihatlaridan biri –ilm olish, kasb-hunar o'rganishdagi beqiyos yordamidir.

Kundalik turmushda duch kelinadigan turli yumushlarni bajarishni ham internet, xususan ijtimoiy tarmoqlar yordamida oson o'zlashtirish mumkin. Oddiy misol, ayollar bichish-tikish yoki pazandalik sirlarini Youtube tarmog'idagi kanallardan bemalol o'zlashtiraoladi. Har bir narsaning ijobiy tarafi bo'lganidek salbiy tomonlari ham mavjud.

Ijtimoiy tarmoq o'z qamroviga har bir sohani oladi bilim, madaniyat, qurilish, iqtisodiy va ijtimoiy tarmoqlar haqida umumiy ma'lumotlarni topish imkoniga egamiz. Buning aksini oladigan bo'lsak insonni vaqtini samarasiz narsalarga sarflab yuboriladigan va ong ostiga ta'sir qilib bugungi yoshlarni o'z iskanjasiga qamrab ham olishini ko'rishimiz mumkin.



Qisqa qilib aytganda noʻtigri foydalanish oqibatida ijtimoiy tarmoqlar vaqt kushandasiga aylanib qolmoqda. Bugun texnika zamonida har bir yosh avlodining qoʻlida telefon, kompyuter koʻrishimiz va ularning barcha ijtimoiy tarmoqlarda faol ekanligini kuzatishimiz mumkin. Shu ijtimoiy tarmoqlarga bogʻlanib qolish natijasida bugungi yosh avlodning kelajakka boʻlgan fikrlarining tarqoqligi va dunyo qarashining torligi, jamiyatda yani odamlar orasida yurish, gapirish va tinglash madaniyatining yoʻqolishiga olib kelmoqda Internet bizning hayotimizning bir qismiga aylandi. Bugungi kunda koʻplab tarmoq foydalanuvchilari mashhur ijtimoiy tarmoqlarga katta eʼtibor berishmoqda. Bunday vebxizmatlarning koʻplab tarafdorlari bor, ammo ularning koʻp raqiblari ham bor. Ularning har biri koʻplab argumentlarni oʻz nuqtai nazarlari foydasiga olib boradi.

Biz, oʻspirinlarga nisbatan, bu muammo ayniqsa dolzarbdir. Ammo bu hodisa muammo boʻladimi, bu asosiy masala. Butun jamiyatga eʼtibor berishga arziydimi yoki har kim oʻzi uchun qaror qabul qilishi kerakmi: ijtimoiy tarmoqlar taʼsiriga beriladimi yoki ularga ahamiyat bermaydimi? Bu masalalarning barchasi har bir insonning dunyoqarashi va salohiyati orqali aniqlanadi.

Xulosa. Alixontoʻra Sogʻuniy shunday eslatib oʻtgan. Agar oʻzbeklar kitob oʻqishga ham oshga kelgandek yigʻila olganlarida edi, dunyoda bundan qudratli millat boʻlmas edi.. Shu nuqtai nazaridan yoshlarimizni koʻproq kitob oʻqishga ularning savodxonliklarini oshirishga albatta kattalar ham oʻrnak boʻlmoqligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. <https://iiv.uz/news/ijtimoiy-tarmoq-undan-siz-qanday-foydalanasiz>
2. <https://whatsappss.ru/uz/brauzer/kogda-poyavilis-soc-seti-kto-sozda-socialnyesetisocialnye.html>



3. <https://hecc.ru/uz/internet/socialnye-seti-za-i-protiv-socialnye-seti-v-nasheizhizni-za-iprotiv.html>
4. <https://iiv.uz/news/ijtimoiy-tarmoq-undan-siz-qanday-foydalanasiz>
5. <https://daryo.uz/2017/07/06/ijtimoiy-tarmoqlarning-6-ta-ilmiy-asoslantirilganxavflijihati>